



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 3-yanvar, chorshanba,
1 (23.878)-son

**KUN
HIKMATI**

Qarilarning
qadri yoshlarni
qadrlay
bilishda

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI



YANGI YIL BAYRAMI YANGI GACHA BO‘LDI

Viloyatimizda Yangi yil bayrami keng nishonlandi. Barcha shahar va tuman markazlarida ulkan archalar o‘rnatilib, ko‘cha va xiyobonlar bayramona bezatildi. Yangi yil oldidan yangi bunyod etilgan, ta‘mirlanib zamonaviy ko‘rinishga keltirilgan bir qator obyektlar foydalanishga topshirildi. Ehtiyojmand oilalar holidan xabar olinib, sovg‘alar ulashildi.

SAMARQANDNING SAKKIZ HUDUDIDA ULKAN ARCHALAR O‘RNATILDI

Samarqand shahridagi Ko‘ksaroy maydoni, Qorasuv va Sartepa massivi, Alisher Navoiy nomli ko‘cha, Temir yo‘l vokzali yonidagi xiyobon, Kimyogarlari, So‘lim hamda Farhod shaharchalarida Yangi yil bayrami tadbirlari ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi.

- Shaharning 8 hududida tashkil etilgan har bir tadbir ko‘ngildagidek o‘tishi uchun viloyat hokimi o‘rinbosarlari rahbarligida ishchi guruhlar tuzildi, - deydi viloyat hokimi o‘rinbosari Rustam Qobilov. - O‘rnatilgan ulkan archalar va ular atrofi bayramona bezatildi. Har bir hududda alohida sahnalar tashkil etilib, shahar aholisi va mehmonlar uchun teatrlashtirilgan tomoshalar va konsert dasturlari namoyish etildi.

DRONLAR SHOUSI BAYRAMONA KAYFIYAT ULASHDI

1-yanvar oqshomida Registon maydoni va uning atrofi odamlar bilan gavjum bo‘ldi. Turli rangdagi chiroqlari bilan 400 dan ziyod dronlar osmonga uchirildi. - Dam olish kunlarida Samarqandga oilaviy sayohat uyushtirgan edik, - deydi qoraqalpog‘istonlik Salomatxon Aytimova. - Yilni qanday kayfiyatda boshlasak, shunday davom etishi tabiiy. Bugun yangi yilning birinchi kuni ko‘tarinki ruhda boshlandi. Ayniqsa, ko‘hna kentning yuragi hisoblangan Registonda tashkil etilgan dronlar shousini tomosha qilish bizga ham nasib etganligidan xursandmiz. Dronlar yordamida osmonda ko‘zni quvnatuvchi shakllar hosil qilindi.

YANGI YIL YANGI BINOLARDA QARSHI OLINDI

Qo‘shrabot tumanida Yangi yil bayrami arafasida o‘nga yaqin obyekt ishga tushirildi. - Quvkalla mahallasida davlat dasturi asosida 120 o‘rinli 17-davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotining yangi binosi qurilib, ishga tushirildi, - deydi Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tuman bo‘linmasi rahbari Shavkat Ziyodinov. - Mirishkor mahallasida 1 milliard 600 million so‘m evaziga bunyod etilgan oilaviy shifokorlik punkti, Do‘stlik mahallasida esa loyiha qiymati 1 milliard 164 million so‘m bo‘lgan zamonaviy ko‘prik foydalanishga topshirildi. Boquvchisini yo‘qotgan, 2 farzandi bilan og‘ir sharoitda yashab kelayotgan bozorjoyluk D.Barotovaga 2 xonali uy sovg‘a qilindi. 2004-yilda qurilib, ta‘mirlanib ahvolga kelib qolgan tuman sport maktabi “Tashabbusli budget” loyihasi asosida 1 milliard 200 million so‘m mablag‘ evaziga ta‘mirlanib, zamonaviy ko‘rinishga keltirildi.

YANGI YIL BAYRAMI VATAN HIMOYACHILARI KUNIGA ULANIB KETADI

Har yili Yangi yil bayrami arafasida 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni oldidan “Harbiy vatanparvarlik oyligi” tadbirlari o‘tkaziladi. Bu yil ham Markaziy harbiy okrug Samarqand gornizoni ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tomonidan turli tadbirlar tashkil etildi. - Harbiy orkestr jamoamiz bu yil ham aholi, xususan, bolajonlarni xursand qilishda davom etdi, - deydi markaz boshlig‘i Akbar Abduxalilov. - Bu safar avvalgilardan farqli o‘laroq, 15 kishidan iborat orkestr jamoasiga 35 nafar harbiy xizmatchi ham qo‘shilib, bayram tadbirlarida ishtirok etdi. Qorbobo kiyimidagi harbiylar orkestr musiqsa sadolari ostida shahar ko‘cha va xiyobonlari bo‘ylab yurib, odamlarga xush kayfiyat ulashdi. Shuningdek, “Qorbobo”lar “Saxovat uyi”da ham bo‘ldi.

To‘lqin SIDDIQOV.

Munosabat

2024-YIL TADBIRKORLAR YILI BO‘LADI

Tadbirkorlarning ko‘payishi ish o‘rni yaratish, soliq tushumlarini oshirish, sohalarni rivojlantirish, importni qisqartirib, eksportni oshirish, valyuta tushumlarini ta‘minlash va boshqa funksiyalarni bajarishda davlatga yengillik yaratadi. Davlatning qudrati va aholi farovonligi tadbirkorlikning rivojlangani bilan belgilanadi. Shu bois ishbilmonlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratiladi.

O‘zbekistonda ham keyingi yillarda tadbirkorlik uchun rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda, soha subyektlari faoliyatidagi to‘siqlar bartaraf etilmoqda. Birgina iqtisodiy zonalar tashkil etilishi ham bunga isbot bo‘ladi. Viloyatimizda “Urgut” erkin iqtisodiy zonasining tashkil etilishi sanoat rivojiga zamin yaratdi. Misol uchun, 2022-yilda iqtisodiy zona subyektlari tomonidan qiymati 328 million dollarlik 77 ta loyiha ishga tushirildi va 5587 ta doimiy ish o‘rni yaratildi. Ular tomonidan 4855 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 114,8 million dollarlik eksport amalga oshirildi. 28,7 million dollarlik 17 ta qo‘shimcha loyiha ishga tushirilishi natijasida mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi va budgetga 629 milliard so‘m tushum ta‘minlandi. 2023-yilda esa 130 dan ortiq loyiha ishga tushdi.

Biz ham yaratilgan sharoit, imkoniyatlardan ruhlanib 2018-yilda 10 nafar ishchi bilan metalga ishlov berishni yo‘lga qo‘ygandik. Korxonamizda asosan yurimizga xorijdan import qilinadigan qurilish materiallari, shit korpuslari, metall shkaflar, qora metaldan yasaladigan boshqa turdagi mahsulotlar, kabel yo‘laklari, shamolatish tizimlari, katta o‘lchamdagi yengil konstruksiyali soyabonlar ishlab chiqaryapmiz. Hozirda ishchilar soni 160 nafarga yetdi. O‘tgan yil yakuni bilan ishlab chiqarish hajmi 6 barobarga oshdi, mahsulotimizning 70 foizi eksport qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari 2024-yilni mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”, deb e‘lon qilgan barcha tadbirkorlar qatori menga katta quvonch bag‘ishladi. Chunki yuqorida aytganimdek, ishbilmonlikning rivojlanishi davlatning qudrati bo‘lishiga zamin yaratadi, yurt farovonligiga xizmat qiladi, bandlik ta‘minlanadi. Bu esa iqtisodiy yuksalish va taraqqiyot kafolati bo‘ladi.

Nuriddin HAMROQULOV,
“MIRANKUL CONSTRUCTION MATERIALS LTD”
mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari.

Bugungi kunda viloyatimiz aholisining 2 million 315 ming nafarini 30 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il-qizlar tashkil etadi. Ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, sport bilan shug‘ullanishi, til o‘rganishi, kitobxonlik va IT sohasiga qiziqishini oshirish, bandligini ta‘minlash, umuman, yoshlarni har taraflama qo‘llab-quvvatlash masalasiga alohida e‘tibor qaratilayapti.

YOSHLAR UCHUN IMKONIYATLAR KENGAYADI

O‘tgan yil “Besh tashabbus olimpiadasi”ning bahorgi va kuzgi mavsumlarida o‘tkazilgan 4 ta IT, 4 ta intellektual, 3 ta san‘at va 38 ta sport yo‘nalishidagi tanlovlarning respublika bosqichida viloyatimiz yoshlari 50 ta medal bilan birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Musobaqalarda g‘olib bo‘lgan yoshlarning mahallalarida 16 ta sport maydonchasi barpo etildi. Shuningdek, har bir mahallada “Yoshlar bandligi dasturi” amalga oshirilib, 54 ming 373 nafar yoshning bandligi ta‘minlandi. Ularning 23 ming 242 nafari maktab bitiruvchiligidir.

Kelgusida yanada ulkan marallarni zabt etishni maqsad qilganmiz. Yangi yilda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha oldimizga bir qator vazifalarni belgilab olganmiz. Jumladan, “Ombor daftari” shakllantiriladigan bo‘ladi. Bu har bir yo‘nalish bo‘yicha, ya‘ni og‘ir toifadagi yoshlar bo‘ladimi, iqtidorli yigit-qizlarni yoki xorijda mehnat qilayotgan yoshlarni, ularning muammolarini yechish, qiziqishlari bo‘yicha ko‘mak ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Samarqandlik yoshlar uchun IT yo‘nalishida ham yirik loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Bunda yoshlarning soha bo‘yicha bilimlarini oshirish maqsadida yaqinda Samarqand shahrida ishga tushirilgan ilk dasturlash maktabi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu yil kitobxonlikni yanada keng targ‘ib qilish maqsadida yirik loyihalarni amalga oshirgan holda 400 mingga yaqin yoshlarni qamrab olishni hamda zamonaviy kasblarni o‘rgatish loyihasi orqali 20 mingga yaqin ishsiz yoshlarning bandligini ta‘minlashni maqsad qilganmiz.

Shuningdek, yoshlarga xorijiy tillarni o‘rgatish maqsadida ham aniq rejalar tuzilgan. Jumladan, “Ibrat farzandlari” loyihasi doirasida chet tillarni o‘rganuvchi yoshlar sonini 200 mingga yetkazish, “Ibrat Academy” ilovasi orqali til o‘rganishdagi videoko‘rishlar sonini esa 1 millionga oshirish ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari xalqimizga yo‘llagan Yangi yil bayrami tabrigida 2024-yilni mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”, deb e‘lon qilganligi bizga, ya‘ni Yoshlar ishlari agentligi vakillariga alohida mas‘uliyat yuklaydi. Yil boshidan ana shu mas‘uliyatni his qilib ishga kirishdik.

Husan TO‘XTAYEV,
Yoshlar ishlari agentligi viloyat
boshqarmasi boshlig‘i.

25-30-dekabr kunlari Samarqandda shaxmatning rapid va blits yo‘nalishlari bo‘yicha VI jahon chempionati bo‘lib o‘tdi.

Umumiy sovrin jamg‘armasi 1 million AQSH dollarini tashkil etgan chempionatda dunyoning 52 mamlakatidan 300 nafardan ziyod shaxmatchi ishtirok etdi. Jahon chempionati dasturiga muvofiq, 26-28-dekabr kunlari 13 turda rapid, 29-30-dekabr kunlari esa 21 turda blits musobaqalari o‘tkazildi.

VI jahon chempionatining rapid yo‘nalishida erkaklar o‘rtasida amaldagi jahon chempioni, norvegijalik Magnus Karlsen 10 ochko bilan chempion bo‘lgandi. U blitsda ham 16 ochko bilan mutlaq g‘olib bo‘ldi. Bahslarda FIDE bayrog‘i ostida ishtirok etgan Daniil Dubov va



Vladislav Artemiyev ikkinchi va uchinchi o‘rinlarni egalladi. Ushbu yo‘nalishda shaxmatchi xotin-qizlar o‘rtasida FIDE bayrog‘i ostida dona surgan Valentina Gunina 14 ochko jamg‘arib, jahon chempionligini qo‘lga kiritdi. Ikkinchi o‘rin shvetsariyalik Aleksandra Kostenyuk, uchinchi o‘rinni xitoylik Zu Jinner band etdi. Hamyurtlarimizdan erkaklar orasida eng yaxshi natijani 12,5 ochko bilan Shamsiddin Vohidov hamda Nodirbek Yakubov qayd etdi. Qizlar orasida Umida Omonova 9,5 ochko

to‘pladi. Musobaqalar yakunlari bo‘yicha ommaviy axborot vositalari vakillari uchun o‘tkazilgan matbuot anjumanida chempionat yuqori saviyada tashkil etilgan va o‘tkazilgan ta‘kidlandi. Musobaqaning taqdirlash marosimida g‘oliblarga medallar va esdalik sovg‘alari topshirildi. Marosimda Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) vitse prezidenti Mayir Mamedov, O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi rahbari Alisher Sa’dullayev ishtirok etdi.

F.RO‘ZIBOYEV.

2024-YIL
SAMARQANDDA

Viloyatda yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi 87,8 trillion so'mga 2023-yilga nisbatan 105,3 foiz o'sishi kutilmoqda.

Budjet daromadlari 5904,3 trillion so'mga prognoz qilinayapti.

11352 ta xonadonli 228 ta ko'p qavatli uy-joy quriladi.

Mahalliy tashuvchilar tomonidan jami 150 ta (100 ta elektrobus va 20 ta avtobus) avtotransport xarid qilinadi.

Viloyatda jami 23 ta mehmonxona, 15 ta xostel va 40 ta oilaviy mehmon uylari tashkil etiladi. Shuningdek, 10 ta turistik avtobus va 15 ta mikroavtobus olib kelinadi.

Viloyatda 30 ming nafar aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitiladi. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholiga tadbirkorlik qilish uchun 1185 milliard so'm kredit ajratiladi.

Umumiy qiymati 2,8 milliard dollarlik 1875 ta investitsiya loyihasi ishga tushirilishi natijasida 28400 ta yangi ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan.

46 ta loyiha doirasida 775 million dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilishi hamda 2023-yilga nisbatan 138 foizga o'sish rejalashtirilmoqda.

Viloyat eksport hajmini 734 million dollarga yetkazish mo'ljallangan.

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 39,2 trillion so'mga oshirilib, 2023-yilga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 foizni tashkil etadi.

"Urgut" erkin iqtisodiy zonalari hududidagi subyektlar tomonidan umumiy qiymati 250 milliard so'mlik 10 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 1100 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

2024-yilda chikich sanoat zonalarida umumiy qiymati 102,8 milliard so'mlik 35 ta investitsiya loyihasi ishga tushiriladi va 571 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

"Yoshlar bandlek dasturi" orqali 33272 nafar yoshlar qamrab olinib, doimiy ish o'rinlariga joylashtiriladi va kasb-hunar, tadbirkorlikka o'qitiladi.

Iqtidorli yoshlar iste'dodini ro'yobga chiqarish va ularni qo'llab-quvvatlashga ko'maklashish maqsadida 700 mingdan ziyod yoshlarni "Ibrat farzandlari" YouTube platformasi, "Ibrat Academy" mobil ilovasi, "UzChess" loyihasi, volontyorlik va liderlik loyihalari hamda intellektual o'yinlarga keng jalb qilish choralari ko'riladi.

Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy

Xalq deputatlari Samarqand

"2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq to'qson to'rtinchi sessiyasi **QAROR QILADI:**

1. Samarqand viloyati mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 5191,7 milliard so'm, xarajatlari 6780,2 milliard so'm prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 1588,5 milliard so'm miqdorida belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinadi.

2. Quyidagilar:
2024-yil uchun Samarqand viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi 1-ilovaga muvofiq,
2024-yil uchun Samarqand viloyatining viloyat budjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

2024-yil uchun Samarqand viloyatining viloyat budjetidan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;
2024-yil uchun tuman va shaharlar mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yori 4-ilovaga muvofiq;
Bunda, ajratmalar me'yori bo'yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda Samarqand viloyati bo'yicha g'aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yiladi.

Tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining 2024-yil uchun daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmlari 5-ilovaga muvofiq;
2024-yil uchun viloyat budjetidan tuman va shaharlar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosi-

dan qat'i nazar, kamaytirishga yo'l qo'yilmagligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinadi.

3. 2024-yil uchun viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 28,4 milliard so'm miqdorida belgilansin.

4. Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2024-yil uchun zaxira jamg'armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarning (bundan tumanlar va shaharlar budjetlari jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag'lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg'armasidan mablag'lar ajratilgan taqdirda ushbu qarorga o'zgartishlar kiritilmaydi.

5. 2024-yil uchun viloyat budjet, tuman va shaharlar mahalliy budjetlari shaxsiy g'azna hisobvaraqilarida turadigan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

6. O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy budjet xarajatlari hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlarini kengaytirilganligi inobatga olinadi.

7. 2024-yilda quyidagi soliq turlari:
a) shahar va tumanlar budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi: jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i; jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i; jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qo'ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;
Davlat obyektlarini ijaraga berishdan olinadigan daromadlar; mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar tegishli moliya yilidan oldingi yilning 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Samarqand viloyati statistika boshqarmasidan olingan tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq. Bunda, daromadlar bo'yicha prognozning bajarilmagan qismi tuman va shaharlar budjetiga respublika budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi, daromadlar bo'yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika budjeti ixtiyoriga qoladi.

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi: elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
qonunchilikda belgilangan miqdordagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdordagi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;
qonunchilikda davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga o'tkazilishi belgilangan tushumlar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;
davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar.

v) viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o'rtasida taqsimlanadi;

2024-yil uchun Samarqand viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi

No	Ko'rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz
1.	Yalpi hududiy mahsulot, milliard so'm	87 800,0
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati, foizda	5,3
3.	Iste'mol narxlar indeksini, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	8,8
4.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	5,7
5.	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	3,2
6.	Chakana tovar aylanmasining o'sish sur'ati, foizda	2,9

1-ILOVA

2024-yil uchun Samarqand viloyatining viloyat budjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlari

No	Daromad turlari	Jami
JAMI		2 920 705 800,0
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	224 007 300,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1 659 911 600,0
3	Aksiz solig'i, jami	242 788 800,0
shu jumladan:		
-	yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	242 788 800,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	96 183 800,0
5	Yuridik shaxslar yer solig'i	144 724 900,0
6	Davlat boji	229 551 000,0
7	Davlat tashkilotlari foyda solig'i	5 606 000,0
8	Davlat mulki obyektlarini sotishdan olingan daromadlar	24 500 000,0
9	Jarimalar	185 151 000,0
10	Yig'img'lar	108 281 400,0

2-ILOVA

2024-yil uchun Samarqand viloyatining viloyat budjetidan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

No	Ko'rsatkichlar	miqdori
Xarajatlarning miqdori, Jami		4 509 189 699,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		2 155 080 444,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		715 114 800,0
Tuman va shahar mahalliy budjetlariga transfertlar		1 638 994 455,0
1.	Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi	919 987 551,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		332 187 551,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		587 800 000,0
2.	Oilay ta'lim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi	167 733 793,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		167 733 793,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
3.	Sog'liqni saqlash boshqarmasi	1 096 353 097,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		999 453 097,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		96 900 000,0
4.	Madaniyat boshqarmasi	83 094 372,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		83 094 372,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
5.	Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi	114 753 400,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		114 753 400,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
6.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi	14 835 379,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		14 835 379,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
7.	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi	53 948 541,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		53 948 541,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
8.	Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	63 657 724,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		44 338 824,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		19 318 900,0
9.	Transport boshqarmasi	3 760 021,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		3 760 021,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
10.	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi	44 814 497,0

shu jumladan:		
joriy xarajatlari		44 814 497,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
11.	Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi	1 708 871 516,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		69 877 061,0
Tuman va shahar mahalliy budjetlariga transfertlar		1 638 994 455,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
12.	Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi	1 958 789,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		1 958 789,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
13.	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi	1 462 875,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		1 462 875,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
14.	Kambag'allikni qisqartirish va bandlek boshqarmasi	6 834 836,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		6 834 836,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
15.	Investitsiyalar sanoat va tashqi savdo boshqarmasi	11 479 304,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		11 479 304,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
16.	Adliya boshqarmasi	19 981 479,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		19 981 479,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
17.	Soliq boshqarmasi	33 472 284,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		33 472 284,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
18.	Samarqand viloyati hokimligi	148 531 971,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		137 436 071,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		11 095 900,0
19.	Saylov kotibiyati	81 088,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		81 088,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		
20.	Boshqa tashkilotlar	13 577 182,0
shu jumladan:		
joriy xarajatlari		13 577 182,0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar		

3-ILOVA

2024-yil uchun tuman va shaharlar mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yori

No	Shahar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	Yig'img'lar (bojxona yig'img'laridan tashqari)	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	Aylanmadan olinadigan soliq	Davlat mulki bo'yicha ijaraga to'lovlar
1	Samarqand shahri	20	20	20	10	10	30	100	100
2	Kattaqo'rg'on shahri	100	100	100	100	40	80	100	100
3	Oqdaryo tumani	100	100	30	30	30	60	100	100
4	Bulung'ur tumani	100	100	40	100	50	70	100	100
5	Jomboy tumani	40	40	30	100	40	70	100	100
6	Ishtixon tumani	100	100	50	100	50	70	100	100
7	Kattaqo'rg'on tumani	50	50	50	20	40	60	100	100
8	Qo'shrabot tumani	100	100	100	100	50	70	100	100
9	Narpay tumani	100	100	60	100	50	70	100	100
10	Payariq tumani	100	100	70	100	50	80	100	100
11	Past Darg'om tumani	30	30	20	100	40	50	100	100
12	Paxtachi tumani	100	100	100	100	50	80	100	100
13	Samarqand tumani	40	40	10	10	10	70	100	100
14	Nurobod tumani	100	100	100	100	30	80	100	100
15	Urgut tumani	50	50	50	100	40	10	100	100
16	Toyloq tumani	50	50	30	100	40	50	100	100

4-ILOVA

Tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining 2024-yil uchun daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmlari

No	Hudud nomi	Daromad *	Xarajat
JAMI		2 271 029 200,0	3 910 023 655,0
1	Samarqand shahri	428 515 500,0	583 830 853,0
2	Kattaqo'rg'on shahri	81 021 000,0	159 513 068,0
3	Oqdaryo tumani	99 008 600,0	165 129 943,0
4	Bulung'ur tumani	115 771 000,0	198 490 012,0
5	Jomboy tumani	111 067 400,0	179 079 387,0
6	Ishtixon tumani	116 427 000,0	231 199 881,0
7	Kattaqo'rg'on tumani	128 389 500,0	224 232 411,0
8	Qo'shrabot tumani	86	

viloyati Kengashining QARORI

budjetini tasdiqlash to'g'risida

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq; yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i; benzinni, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i; qonunchilikda belgilangan miqdordagi O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (boj-xona organlari tomonidan undiriladigan yig'imlardan, g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilitatsiya yig'imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari); ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig'imlar;

Shu bilan birga, qonunga muvofiq viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilingan 100 foiz miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tashqari) hamda foyda solig'idan tushumlarning (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to'lov manbayida ushlab qolinadigan daro-

madlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari) shahar va tumanlar o'rtasida taqsimlansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-190-son qaroriga asosan, tuman va shaharlar hokimliklariga o'z hududlaridagi avtomobil yo'llarida yo'l harakati qoidalari buzilishini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalarini o'rnatish huquqi berilishi munosabati bilan mazkur texnik vositalar orqali qayd etilgan qoidabuzarlklar uchun undirilgan jarima summasining 30 foizi tuman va shaharlar mahalliy budjetiga qoldirilishi ko'rsatib o'tilsin.

8. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (F.Abilov), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Mirzayev), viloyat soliq boshqarmasi (S.Eshmatov) tuman (shahar) hokimliklari mas'ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko'rsatkichlarini o'z vaqtida va samarali bajarish;

budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish; budget intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

budget daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

9. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (F.Abilov), xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati (S.Usmonov), shahar va tumanlar hokimliklari:

budget daromadlari va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash;

soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat'iy nazoratni o'rnatish;

tegishli ravishda hududiy budget mablag'lari taqsimlovchilarning budget mablag'laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo'yicha hisobotlarini xalq deputatlari viloyat, shahar va tumanlar Kengashlariga kiritib borilishini ta'minlash.

10. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (F.Nasrullayev) va viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (F.Abilov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

E.TURDIMOV

2023-yil 27-dekabr

VI-94-126-7-0-K/23

Pedagoglar
attestatsiya va
malaka hujjatlarini
qayerga
topshiradi?

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrda "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Unga ko'ra, pedagoglar attestatsiyadan o'tish uchun har yili yanvar-fevral va avgust-sentabr oylarida bevosita DXM, YIDXP yoxud ta'lim inspeksiyasining rasmiy veb-saytida ro'yxatdan o'tgan holda murojaat qiladi.

Bunda ariza beruvchilar (jismoniy shaxslar) attestatsiyadan o'tish bo'yicha so'rovnomaga to'ldiradi va unga pedagogning ta'lim to'g'risidagi hujjati (xorijiy davlatda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni O'zbekistonda tan olish haqidagi guvohnoma), qayta tayyorlash kurslaridan o'tganligi haqidagi diplom nusxasi (agar mavjud bo'lsa), mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash natijalari yuzasidan ma'lumotnoma ilova qilinadi. Ma'lumotlar so'rovnomaga kiritilgandan so'ng ariza beruvchi uni o'z elektron raqamli imzo (ERI) si bilan tasdiqlaydi. ERI kaliti bo'lmagan hollarda tegishli imzolar identifikatsiya qilishning boshqa vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo va boshqalar) bilan ham tasdiqlanishi mumkin.

Pedagog kadrlarni navbatdagi majburiy attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun yig'im undirilmaydi. Navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun BHMning 1 baravari (340 ming so'm) miqdorida yig'im undiriladi.

Mehrangiz HAKIMOVA,
Samarqand shahar Davlat xizmatlari
markazi katta mutaxassisi.

6-ILOVA

2024-yil uchun viloyat budjetidan tuman va shaharlar mahalliy budjetlariga
ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transferlar miqdori

№	Shahar va tumanlar	Jami summa	shundan, aksiz solig'i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar*	
			JAMI	shundan
	JAMI	1 638 994 455,0	712 515 208,0	
	shundan			
1	Samarqand shahri	155 315 353,0	99 359 208,0	
2	Kattaqo'rg'on shahri	78 492 068,0	16 183 000,0	
3	Oqdaryo tumani	66 121 343,0	29 297 000,0	
4	Bulung'ur tumani	82 719 012,0	34 191 000,0	
5	Jomboy tumani	68 011 987,0	32 044 000,0	
6	Ishitxon tumani	114 772 881,0	46 677 000,0	
7	Kattaqo'rg'on tumani	95 842 911,0	49 736 000,0	
8	Qo'shrabot tumani	80 508 523,0	24 044 000,0	
9	Narpay tumani	97 763 219,0	38 547 000,0	
10	Payariq tumani	153 557 353,0	46 204 000,0	
11	Past Darg'om tumani	130 081 284,0	64 797 000,0	
12	Paxtach tumani	91 815 251,0	25 884 000,0	
13	Samarqand tumani	88 485 477,0	46 276 000,0	
14	Nurobod tumani	79 602 274,0	27 497 000,0	
15	Urgut tumani	173 736 810,0	94 443 000,0	
16	Toyloq tumani	82 168 709,0	37 336 000,0	

* mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkohol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar hisobidan ajratiladigan mablag'lar.

7-ILOVA

2024-yil uchun viloyat budjet, tuman va shaharlar mahalliy budjetlari
shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turadigan budget mablag'larining yo'l
qo'yiladigan eng kam miqdori

№	Hudud nomi	Miqdor	
		JAMI	shundan
	JAMI	40 000 000,0	
	shundan		
1	Viloyat byudjeti	15 302 000,0	
2	Samarqand shahri	3 806 000,0	
3	Kattaqo'rg'on shahri	1 026 000,0	
4	Oqdaryo tumani	1 056 000,0	
5	Bulung'ur tumani	1 242 000,0	
6	Jomboy tumani	1 143 000,0	
7	Ishitxon tumani	1 444 000,0	
8	Kattaqo'rg'on tumani	1 340 000,0	
9	Qo'shrabot tumani	1 038 000,0	
10	Narpay tumani	1 381 000,0	
11	Payariq tumani	1 868 000,0	
12	Past Darg'om tumani	1 890 000,0	
13	Paxtach tumani	1 249 000,0	
14	Samarqand tumani	1 512 000,0	
15	Nurobod tumani	1 285 000,0	
16	Urgut tumani	2 167 000,0	
17	Toyloq tumani	1 251 000,0	

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

YO'LOVCHILARGA
YANGI
YIL
SOVG'ASI

Samarqand shahrida aholiga ko'rsatilayotgan jamoat transporti xizmatini yaxshilash maqsadida "Dilshod trans servis" MCHJ Xi-toyning CRRC kompaniyasi bilan tuzilgan shartnomaga asosan 10 ta zamonaviy avtobus olib keldi.

- Bir umr jamoat transportida yo'lovchilarga xizmat qilib keldim, - deydi "Dilshod trans servis" MCHJ rahbari Asatillo Ahme-

dov. - Pandemiya tufayli korxonaning kreditga olingan 36 avtobusidan 16 tasidan ajraldik. Ayni vaqtda 20 ta avtobus aholiga xizmat qilmoqda. Kelgusi yilda yana 25 ta xuddi shunday zamonaviy avtobus olib kelamiz.

Yangi avtobus 65 nafar yo'lovchiga mo'ljallangan bo'lib, konditsioner bilan jihozlangan, har bir o'rindiqa USB-port o'rnatilgan.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Barot NODIROV

Qishloq xo'jaligi fidoyisi, davlat va jamoat arbobi Barot Nodirov 2023-yil 31-dekabrda 82 yoshida vafot etdi.

B.Nodirov 1941-yilda Jomboy tumani No'sh qishlog'ida tug'ildi. O'rta maktabni bitirgach, mehnat faoliyatini tumandagi "Haqiqat" jamoa xo'jaligida boshladi. Keyin Samarqand buxgalterlar tayyorlash maktabida, Toshkent qishloq xo'jaligiga kadrlar tayyorlash kursida tahsil oldi. 1961-yildan boshlab xo'jalik hisobchisi, taftish komissiyasi raisi vazifalarida mehnat qildi.

Barot aka 1969-1970-yillarda viloyat yoshlar qo'mitasida faoliyat yuritdi va bu davrda Jomboy tumanining qayta tashkil etilishida faol ishtirok etdi.

Keyinchalik yana qishloq xo'jaligi sohasiga qaytib, xo'jalikka rais bo'ldi. 80-yillarda sodir bo'lgan "paxta ishi" tajribali dehqon va faol jamoatchi, zukko rahbar Barot Nodirovni ham chetlab o'tmadi. Besh yil davom etgan tuhatlar, sinovli kunlar uning qo'lini mehnatdan sovutgan bo'lsa-da, ruhini sindirmadi. Mustaqillik yillarida uning nomi oqlandi, barcha ayblovlar soxta ekani oydinlashdi.

B.Nodirov 1991-yildan keyingi yillarda tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i, "Haqiqat" shirkat xo'jaligi raisi, "Naymantepa taraqqiyoti" muqobil mashina-traktor parki direktori sifatida mehnat qildi. 2006-yildan "Ilg'or haqiqat" fermer xo'jaligini tashkil etib, uzoq



yillar unga rahbarlik qildi.

Barot Nodirovning ko'p yillik samarali faoliyati davlatimiz tomonidan munosib e'tirof etildi. "Shuhrat" medali hamda "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlandi.

Ajoyib inson, mohir rahbar Barot Nodirovning yorqin xotirasi keng jamoatchilik, farzandlari va do'stlari qalbidagi abadiy yashaydi.

"Nuroni" jamg'armasi
viloyat bo'limi.

O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH
XODIMLARI KASABA UYUSHMASI
VILOYAT KENGASHI

barcha vatandoshlarimizni kirib kelgan yangi



bilan samimiy tabriklaydi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Jamalov Nadir Tashpulatovichga (2020-yil 4-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini oshirish va bolalar qamrovini ko'paytirish borasida amaliy ishlar bajarilmoqda. Ammo negadir viloyatda ayrim davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari yopilib, ish faoliyatini to'xtatgani uchramoqda. Xo'sh, nega bolalar bog'chalari yopilgan? Ushbu savol bilan viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasiga murojaat qildik.

Bog'chalar nega yopildi?

- To'g'ri, viloyatda ayrim davlat bog'chalari yopildi, - deydi viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bosh mutaxassisi Ozodbek Norqulov. - Buning sabablari turlicha. Ba'zilarining binosi yaroqsiz holatga kelganligi, boshqasida qurilish bo'layotgani uchun ish faoliyati to'xtatildi. Masalan, Samarqand shahar Muborak mahallasida joylashgan 37-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining devori yoriqlanib sababli 2020-yil 10-iyundan yopilgan. Bolalar bog'chasi Registon maydonining orqa tomonida joylashgan bo'lib, madaniy meros obyekti hisoblanadi. Uni ta'mirlash uchun madaniy meros boshqarmasidan ruxsat olinishi kerak.

Samarqand shahri "Oqsaroy" mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan

28-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti binosi yaroqsiz holatda bo'lgani uchun 2021-yil 20-yanvardan yopilgan. Bog'cha binosini buzib, qaytadan qurish 2024-yilgi davlat dasturiga kiritilgan. Shahardagi "Nurli yo'l" mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 126-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti esa 2022-yilda qo'shimcha bino qurish uchun tashabbusli budjetda g'olib bo'lgan. Shu yil bog'chada qurilish ishlari boshlangan va vaqtincha bog'cha ish faoliyatini to'xtatgan.

Toyloq tumani Shopo'lot mahallasida joylashgan 4-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti binosi yaroqsiz holatda bo'lgani bois 2021-yilning aprel oyida yopilgan. Ushbu bog'cha binosi 2024-yil davlat dasturiga kiritilgan bo'lib, rejaga ko'ra, 120 o'rinli bino qaytadan quriladi. Tumandagi Adas mahallasida joylashgan 13-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti 2022-yil iyunida buzilib, qaytadan qurilayotgan.

Chorbog'tepa mahallasidagi 12-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti oshxonasi yo'qligi uchun 2022-yil yanvardan yopilgan. Bolalar bog'chalarida oshxona asosiy binodan ajralgan holatda bo'lishi kerak. Ammo mas'ullar oshxona muammosiga yechim topishni paysalga solib kelmoqda. Baxshitepa mahallasida joylashgan 19-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti esa 2022-yilning fevralidan joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilayotgani sababli yopilgan. Ayni paytda bog'chada qurilish ishlari ketaypti.

Jomboy tumani Qo'lbosti mahallasidagi 18-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti binosi 2021-yilning noyabr oyida yaroqsiz holatda deb topilib, yopilgan. Ammo shu paytgacha bolalar bog'chasini qayta qurish davlat dasturiga kiritilmagan. Tumanning "Qo'ng'iroq" mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 26-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti 2020-yil aprelda yopilgan. Ushbu bog'chani buzib, qayta qurish 2024-yilgi davlat dasturiga kiritilgan.

Oqdaryo tumani "Turon" mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 1-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti qurilish boshlangani sabab 2021-yil noyabrdan yopilgan.

Hudud rahbarlari bir necha yildan buyon binosi yaroqsiz holatga kelgan qurilish nazorat inspeksiyasi xulosasi bilan bugungi kunda faoliyat yuritmayotgan bog'chalarning taqdiri bilan qiziqmagan. Yaroqsiz holatga kelgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari binosini qayta qurish uchun investitsiya dasturiga taklif berilmagan.

To'g'ri, yaroqsiz holatga kelgan bog'cha binolarini respublika budjetidan mablag' ajratilmasa, mahalliy mablag'lar hisobiga qurib bo'lmaydi. Shuning uchun bunday maktabgacha ta'lim tashkilotlarini vaqtida davlat dasturiga kiritish uchun takliflar berilishi kerak. Yuqoridagi kabi talabga javob bermaydigan bog'cha oshxonasi yoki hojatxonasini mahalliy budjet mablag'lari hisobidan qayta qurish mumkin. Ammo mas'ullar buning ham chorasini ko'rmasdan.

Bugun viloyatda 356760 nafar bog'cha yoshidagi bolalar bo'lib, ularning 252604 nafari maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olingan, ya'ni qamrov darajasi 70,8 foizga yetkazilgan.

Xurshida ERNAZAROVA.

MADANIY MEROS OBYEKTALARI –

TARIXIMIZ KO'ZGUSI

Har bir xalq o'z tarixini chuqur o'rganishi, milliy o'zligini tiklashi orqaligina yorqin kelajagini barpo eta oladi. Bunda, tabiiyki, madaniy meros yodgorliklari, ko'hna urf-odat va an'analar ustuvor o'rin egallaydi.

Raqamlarga qaraydigan bo'lsak, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda 8208 ta moddiy madaniy meros obyekti ro'yxatga olingan bo'lsa, uning 1607 tasi viloyatimiz hududida joylashgan.

Ayni paytda O'zbekistondagi 4 ta me'moriy majmua – Xiva, Buxoro, Samarqand va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari UNESCO Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Bu joylarda rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlari Madaniy meros departamenti hamda UNESCOning Umumjahon merosi markazi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Keyingi paytlarda O'zbekistondagi noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, tarixiy shaharlarning bosh loyihasi va menejment rejasini UNESCO xalqaro standartlari hamda talablariga muvofiq ishlab chiqishga xalqaro ekspertlar ham keng jalb etilgan. UNESCO bilan yaqin hamkorlikda moddiy va nomoddiy meros obyektlarini asrashga doir xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadbirlar madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish yo'lidagi dolzarb muammolarni ko'rib chiqish, xalqaro tajribani o'rganish, tarixiy-madaniy merosni

saqlashga doir milliy tizimni takomillashtirish, bu yo'nalishdagi davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini aniqlash imkonini beradi. Samarqand ham bugun dunyoning turizm markazlaridan biriga aylanib, qurilish-bunyodkorlik ishlari jadal olib borilmoqda. Ushbu tarixiy maskandagi madaniy meros obyektlarini asl holicha saqlash, uni kelajak avlodlarga yetkazish masalasi yanada murakkablashdi. Buning uchun ushbu masalaga mutasaddi tashkilotlarning mas'uliyatini yanada oshirish, madaniy merosni asrab-avaylash, unga chuqur hurmat-ehtriomda bo'lish madaniyatini yanada yuksaltirish lozim.

Bunda ayrim me'moriy obidalarning transport harakatlanadigan katta yo'llar yonida joylashganligini inobatga olish zarur. Vaqt o'tgani sari qadimiy binolarning tom, fasad hamda ichki qismlarining ta'mirlab holga kelayotganligi, ularni tabiiy sharoitga moslashtirish zaruriyatini tug'diradi. Tarixiy inshootlarning ayrimlariga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni to'liq qo'llash zarur. Moddiy-madaniy meros obyektlarini ilmiy o'rganish, ulardan oqilona foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Obyektlarning butunligi va qiymatini saqlab qolish uchun loyihalash, restavratsiya-tiklash ishlari doimiy ravishda olib borish ham muhim. Rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalarini UNESCOning Umumjahon merosi markazi bilan kelishilgan holda amalga oshirish, obyektlarni saqlashda yong'in, texnika xavfsizligi talablarining bajarilishini ta'minlash, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini yuqori saviyada tashkillashtirish kerak.

Yurtimizdagi har bir madaniy meros – tariximiz ko'zguisi. Bu ko'zguning xira tortmasligi, mudom yaraqlab turishiga munosib hissa qo'shish kasbi, vazifasi, tug'ilgan joyidan qat'i nazar, har bir o'zbekistonlikning vazifasi hisoblanadi.

Jahongir JO'RAYEV,
Registon ansambli gid-ekskursovidi, "Ipk yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti magistranti.

Turmush chorahalarida

bihi rejasini amalga oshirish payida bo'ldi. Hasanali bir hafta safarga ketgandi. Kelsa, Yodgorni militsiya olib ketibdi. So'qimga bo'qilayotgan novvosni Yodgor sheriklariga yetaklab chiqarib berganmish. Zamira darhol uchastka noziriga xabar beribdi va Yodgordan gumonsirayotganini aytibdi. Hasanali bunga ishonch hosil qilish uchun darhol ichki ishlar bo'limiga yetib bordi.

- Faqat besh daqiqaga ruxsat, - dedi navbatchi uni Yodgor yotgan kameraga boshlab borar ekan. - O'g'lim, nahotki, shu gap rost? - Tuhmat, - dedi Yodgor ijirg'anib, - bu o'gay onamning mendan qutulishi uchun o'yab topgan nayrang...

Hasanalning o'g'lini kechirishlarini so'rab yolvorishiga boshliq quloq solmadi: - O'g'ri topilguncha o'g'lingizni ushlab turishga majburmiz. Ishni sud ko'rib chiqadi.

Buni eshitgan To'lan qassob Zamiraning huzuriga tirjayib kirib keldi:

- Qalay, xursandmisiz, opa! Balosiz, balo, novvosni ham rosa boqqan ekan Yodgor, naq uch yuz kilo go'sht qildi, unga qo'shib, harom o'lgan molning yuz kilo go'shtini ham pullab yubordim. Mana ulushingiz. - U opasiga bir dasta pul uzatdi. - Tuhmat ishlariga suyagingiz yo'q-da, opa! Hammasi imi-jimida, xamirdan qil sug'urganday hal bo'ldi. Pochcham ham gapingizga laqqa ishonchi-ya! Gah desangiz, kaffingizga qo'nadigan qilibsiz.

- Hali xotirjam bo'lishga erta, - dedi Zamira qoshlarini chimirib, atrofga alanglab. - Endi hovli-joyni Rustamjonning nomiga xatlab olsam, ko'nglim taskin topadi. Yodgor uchun bu dargohning eshigi endi yopiq. Ammo qilmishim fosh bo'lib qolmasa go'rga edi. Tergovchi suroq paytida "O'g'irlikda Yodgorning qo'li borligiga ishonchingiz komilmi?", deb so'raganda yuragim yorilay dedi. Biron ko'zi o'tkir ekan, odamni teshib yuboray deydi-ya.

- Opa, qo'ying, odamni qo'rqitmang, ularga ro'baru bo'lishdan Xudo asrasin, - To'lan qassob ko'ksiga tuflab qo'ydi.

Tog'aymurod SHOMURODOV.

Shifokorlar Mahzuraning chaqalog'ini saqlab qolishdi-yu, o'ziga yordam berolmadi. Doya Hasanali bolani go'daklar uyiga topshirishni maslahat berdi. Shirvon buvi ko'nmadi:

- Yodgorjonni hech kimga bermayman, unga o'zim qarayman. Sen xavotir olmay, ishingga borib kelaver, o'g'lim. Birorta mehribon ayolga uylanguningcha ko'z-quloq bo'lib turaman...

Zamira ko'nglidagi ayol bo'lib chiqdi. Mehribon, oilam, erim, bolam deyidigan xotin ekan. Ro'zg'or-ga qut-baraka kiritdi, supurish-sidirish, pishirish-kuydirishni o'rniga qo'yib, Yodgorning yetimligini bildirmadi. Afsuski, bu kunlarni Shirvon buvi ko'rmay ketdi. Ayollik burchiga sadoqatni Alloh inobatsiz qoldirmadi. Zamiraga qo'chqorday o'g'il berdi. Farzandsizlik tufayli oldingi eri bilan ajrashgan ayol itiroblarini unutib, bor mehrini o'g'li Rustamga bag'ishladi. Ammo "Odam olasi ichida" deb bejiz aytishmagan ekan. Yodgorga o'gayligi bilindi, qoldi: ro'zg'or yumushlari Yodgorning zimmasiga tushdi. Zamira Hasanali oldida uni "jon-jon"lab erkalgan bo'lardi-yu, eri ishga ketgach, holdan toyguncha ishlatardi: "tandirga o't yoq", "quduqdan suv tort", "qozonni to'ldir", "mollarga suv ber", "o'tin qil"...

Hali suyagi qotmagan Yodgor kuchanib, chiranib, inqillab-sinqillab, og'ri ishlarni miq etmay bajarar, onasi yo'qligidan o'ksinib, yashirincha yig'lab olardi. Oradan yillar o'tib, u katta yigit bo'ldi.

"Onali yetim - gul yetim, otali yetim - o'li yetim", deganlari rost ekan. Yodgorning boshiga qora kunlar yog'ildi. "O'tirsa - o'poq, tursa - so'poq. Ota uyiga sig'may qoldi. O'gay ona undan qutulish yo'llarini qidira boshladi:

"nima qilsa ekan?", o'yalay-o'yalay kallasiga kelgan qabih fikrdan chehrasi yorishdi: "Xuddi shunday qilib ta'zirini beraman, oxiri uydan bezib, qorasini o'chiradi".

Zamira Hasanalini qovoq uyib kutib oldi.

- Ha, xotin, kayfiyating yo'q, toychoq charchatmayaptimi?

- Yo'q, Rustamjon otday, biroq... - Zamira yig'lamsiragan bo'ldi. - Uyimda o'g'ri paydo bo'libdi!

- Nima? O'g'ri? - Hasanali hushyor tortdi. - Nima yo'qolibdi? - Rustamjon tug'ilganida menga sovg'a qilganingiz, tilla uzuk va zirak yo'qoldi.

- O'zing qo'ygan joyingni bilasanmi? Bu uyya begona odam kirmasa, qayerga yo'qolishi mumkin?

- Yodgordan gumonim bor, voyaga yetib, qadam olishi o'zgarib qoldi, gappa quloq solmaydi. Siz ishga ketgach, u ham chiqib ketib, allaqayerlarda sanqib yuradi, yomon bolalarga qo'shilib qoldimikan, deyman.

- Zamira yolg'on gapirayotganidan ovozi titrab, ko'zlarini olib qochdi. - Hm, shunaqa degin. - Hasanalning avzoyi buzildi. - Adashmayabsanmi? Nahotki, Yodgor... Uni buyoqqa chaqir-chi.

Hech narsadan xabari yo'q Yodgor salom berib kirib keldi.

- Chaqirdingizmi, ota?

- Onangning tilla taqinchoqlari qani? - Hasanalning ko'zlariga qonga to'lib, mushltari tugildi. Hech qachon bunchalik jahli chiqmagan edi, o'zini bosolmasdi.

- Bilmadim ota, o'zlaridan so'rang? - Nima? Hali sen menga buyruq beryapsanmi? - Hasanali Yodgorni do'pposlay ketdi.

Eshikdan mo'ralab, zimdan kuzatib turgan Zamira ich-ichidan sevinib, shivirladi: "battar bo'li, bunisi hali holva".

Shu voqeadan keyin Zamira navbatdagi qa-



SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

3-YANVAR

Muhiddin PO'LATOV - 1978-yilda Ishtixon tumanida tug'ilgan. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

5-YANVAR

Rahmatjon LATIPOV - 1941-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq artisti.

6-YANVAR

Po'latjon NOSIROV - (1948-1999) Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Qishloq xo'jaligi Fanlar akademiyasi akademigi.

7-YANVAR

Ilhom BAHROMOV - 1997-yilda Oqdaryo tumanida tug'ilgan. Sportning yunon-rum kurashi bo'yicha jahon chempionatining ikki karra sovrindori, to'rt karra Osiyo chempioni. "Mard o'g'lon" Davlat mukofoti sohibi.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 036 nusxada chop etildi. Buyurtma 2. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

Gazetaning navbatdagi soni 2024-yil 6-yanvar, shanba kuni chop etiladi.

ISSN-201667X



9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda

